



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

**Xalq ta'lifi vaziri jamg'armasi hisobidan har oylik ustama hamda bir martalik pul mukofotlari to'lanadigan malakali pedagog kadrlar va ilg'or xodimlarning Respublika bo'yicha cheklangan soni va har oylik ustamaga hamda bir martalik pul mukofotiga da'vogar pedagoglarni saralab olish tartibini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'lifi vaziri jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 2-avgustdagi 425-son qaroriga muvofiq xalq ta'lifi tizimida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan va o'quvchilari yuqori natijalarga erishgan malakali pedagog kadrlarning mehnatini rag'batlantirish hamda jamg'arma hisobidan har oylik ustama to'lanadigan malakali pedagog kadrlarning respublika bo'yicha cheklangan sonini belgilash maqsadida **buyuraman**:

1. Xalq ta'lifi vaziri jamg'armasi (keyingi o'rinnarda – Jamg'arma) hisobidan Respublika bo'yicha har oylik ustama to'lanadigan malakali pedagog kadrlar va ilg'or xodimlarning cheklangan soni 2000 nafar etib belgilansin.

2. Davlat test markazi tomonidan 2022-2023-o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida qayd etilgan o'rtacha ballar (hududlar kesimida) 1-ilovaga muvofiq;

Davlat test markazi tomonidan 2022-2023-o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida qayd etilgan o'rtacha ballar (tuman (shahar) kesimida) 2-ilovaga muvofiq;

2022-2023-o'quv yili uchun Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablarga kirish imtihonlarida hududlar kesimida jamlangan ballar 3-ilovaga muvofiq;

2022-2023-o'quv yili uchun Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablarga kirish imtihonlarida tuman (shahar)lar kesimida jamlangan ballar 4-ilovaga muvofiq inobatga olinsin.

3. Malakali pedagog kadrlarga va ilg'or xodimlarga har oylik ustama hamda bir martalik pul mukofotlarini to'lash ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha Ishchi guruh taklifiga binoan:

2022-2023-o'quv yili uchun Jamg'arma hisobidan hududlar kesimida har oylik ustama to'lanadigan malakali pedagog kadrlar va ilg'or xodimlarning kvotasi 5-ilovaga muvofiq;

2022-2023-o'quv yili uchun Jamg'arma hisobidan tuman (shahar)lar kesimida har oylik ustama to'lanadigan malakali pedagog kadrlar va ilg'or xodimlarning kvotasi 6-ilovaga muvofiq;

har oylik ustamaga talabgorlarni saralash tartibi 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Malakali pedagog kadrlarga va ilg‘or xodimlarga har oylik ustama hamda bir martalik pul mukofotlarini to‘lash ishlarini muvofiqlashtiruvchi Ishchi guruh tomonidan xalq ta’limi tizimida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan va o‘quvchilari yuqori natijalarga erishgan malakali pedagog kadrlarning mehnatini rag‘batlantirish maqsadida Jamg‘arma hisobidan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilari (o‘quvchilari) tomonidan tegishli o‘quv yili qabulida oliv ta’lim tashkilotlariga, Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablarga kirish imtihonlarida jamlagan ballardan kelib chiqib, “Boshlang‘ich ta’lim”, “Aniq va tabiiy fanlar”, “Xorijiy tillar”, “Ijtimoiy fanlar” va “Amaliy fanlar” yo‘nalishlari bo‘yicha hududlar, tuman (shahar)lar kesimida tasdiqlangan yillik kvotasi hududiy kengashlarga saralab olish uchun taqdim etilsin.

5. **Strategik rivojlantirish va yig‘ma axborot-tahlil boshqarmasi** (Sh.Muxamedov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vaziri, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari boshliqlari 2022-yil 10-noyabrga qadar:

har oylik ustama olishga hududiy kengashlar tomonidan da’vogar nomzodlar ro‘yxatini har bitta yo‘nalish bo‘yicha tegishli tuman (shahar)lar uchun tasdiqlangan yillik kvotaga asosan;

bir martalik pul mukofoti uchun tasdiqlangan kvotaga asosan hududiy kengashlar tomonidan tasdiqlangan nomzodlar ro‘yxatini Xalq ta’limi vazirligiga taqdim etish;

har bitta yo‘nalish bo‘yicha tegishli tuman (shahar) uchun belgilangan har bitta kvota o‘rniga ko‘pi bilan uchta nomzodni taqdim etish;

har oylik ustama olishga hamda bir martalik pul mukofoti uchun nomzodlarni Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-avgustdaggi 425-soni qarori bilan tasdiqlangan “Xalq ta’limi vazirining jamg‘armasi to‘g‘risida”gi Nizomga ko‘ra malakali pedagog kadrlar uchun qo‘yilgan mezonzarga javob berishini ta’minalash vazifalari yuklatilsin.

6. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev va vazir o‘rinbosari T.Komilov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



10 awo  
V

B.Saidov

Toshkent sh.,  
2022-yil “21”-oktabr,  
328-son